

**ZAXIRALAR TANNARXINI HISOBINING USLUBIY
MASALALARI**

*Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti «Moliyaviy boshqaruv
va axborot texnologiyalari» kafedrasida o'qituvchisi*

Umarov Javoxir Baxodir o'g'li, Toshkent, O'zbekiston

Email: umaroffdj@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada zaxiralar tannarxini aniqlash hamda 1700
“Xarid va tayyorlov-saqlash jarayoni tannarxi elementlari” shetini ochish va
yuritish tartibi asoslangan.

Kalitli so'zlar: zaxiralar, zaxiralar hisobining davriy tizimi, zaxiralarni
xarid va tayyorlov-saqlash tannarxi, xarid narxi

**МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ УЧЕТА СТОИМОСТИ
ЗАПАСОВ**

*Преподаватель кафедры «Финансовый менеджмент и
информационные технологии» Ташкентского университета экономики и
технологий **Умаров Джавохир Баходир оғлу**, Ташкент, Узбекистан*

Email: umaroffdj@gmail.com

Аннотация: Данная статья основана на процедуре определения
стоимости запасов и открытия и ведения счета 1700 «Элементы
стоимости закупки, подготовки и хранения запасов».

Ключевые слова: запасы, периодическая система учета запасов,
себестоимость закупки, подготовки и хранения запасов, закупочная цена

**METHODOLOGICAL ISSUES OF ACCOUNTING FOR THE COST
OF INVENTORIES**

*Teacher of the Department of "Financial Management and Information
Technologies" of the Tashkent University of Economics and Technology*

Umarov Javokhir Bakhodir oğlu, Tashkent, Uzbekistan

Email: umaroffdj@gmail.com

Annotation: *This article is based on the procedure for determining the cost of inventories and opening and maintaining account 1700 "Elements of the cost of the purchase and preparation and storage process".*

Keywords: *inventories, periodic system of inventory accounting, cost of purchasing and preparation and storage of inventories, purchase price*

Davriy va uzluksiz zaxiralar tizimlarining amaliyotimizda qoʻllanilishi masalalariga toʻxtalib oʻtaylik. Yuqorida olimlar bergan tartibdagi kabi zaxiralarning xarid tannarxi va ularning elementlarni bitta schyotda hisoblab boʻlmaydi, xarid tannarxiga alohida schyot, uning har bir elementiga alohida schotlar ajratish kerak. Buning uchun “Zaxiralar xarid va tayyorlov-saqlash tannarxi” koʻrsatkichini aniqlash lozim boʻladi.

Zaxiralarni xarid va tayyorlov-saqlash tannarxi – bu zaxiralar tannarxining birinchi elementi boʻlib, xarid bilan bogʻliq hamda zaxiralarni ishlab chiqarishga tayyorlash va saqlashga oid barcha tannarx elementlarini oʻzida mujassamlantiradi.

Xarid va tayyorlov-saqlash tannarxini shakllantirishda asosiy elementlar boʻlib quyidagilar hisoblanadi:

- Xarid narxi;
- Xarid chegirmasi;

- Xaridning qaytarilishi va narxidan tushishlar;
- Xarid bojxona boji;
- Xarid bojxona yig'imi;
- Xarid transport-tayyorlov xarajatlari;
- Xarid boshqa xarajatlar;
- Xarid zaxiralarni tayyorlov-saqlash xarajatlari.

Ushbu holatdan kelib chiqadigan bo'lsak, saqlash xarajatlari agarda ishlab chiqarish zaxiralarini saqlash bilan bog'liq bo'ladigan bo'lsa ular zaxiralar tannarxiga kiradi, chunki bu zaxiralar ishlab chiqarishning keyingi bosqichiga o'tkaziladi. Lekin, tayyor mahsulotlarni saqlash bilan bog'liq xarajatlar esa sotish xarajatlari kiritiladi. Shuning uchun zaxiralarni tayyorlov-saqlash xarajatlari uchun ham alohida schyot ajratish va bu xarajatlarni ham xarid tannarxi va tayyorlov-saqlash xarajatlari tarkibida hisobga olish maqsadga muvofiq.

Zaxiralarni tayyorlov-saqlash xarajatlari quyidagi xarajatlarni kiritish mumkin.

1. Omborda zaxiralarni saqlash uchun isitish, havolantirish, yoritish, boshqa elektr-energiya hamda ombor vositalarining amortizatsiya xarajatlar;
2. Materiallarni qayta ishlash bo'yicha qo'shimcha xarajatlar;
3. Zaxiralar bilan bog'liq soliqlar;
4. Zaxiralar sug'urta bo'yicha qo'shimcha xarajatlar;

Yuqorida har bir tannarxi elementiga korxonalar hisob siyosatida quyidagi ishchi schotlarni ochishni taklif etamiz (6.4-jadval).

6.4-jadval

1700 “Xarid va tayyorlov-saqlash jarayoni tannarxi elementlari”ni shakllantirish uchun mo'ljallangan ishchi schotlar va ularning mazmuni

r	Schyotning kodi	Mazmuni
	1710 “Xarid narxidagi summasi”	Ushbu schyot zaxiralarning xarid narxini qayd qilib boradi. Ushbu schyot tranzit schyot hisoblanadi. Unda qoldiq bo'lmaydi.

		Schyotning debetida xarid qilingan zaxiralarning xarid narxidagi summasi aks ettiriladi. Har bir xarid turi bo'yicha xarid summasi schyotda alohida qayd qilinadi. Schyotning kreditida xaridlar tannarxiga o'tkazilgan summa qayd qilinadi. Debetida aks ettirilgan summa kreditida aks ettirilgan summaga teng bo'ladi
	1720 "Xarid chegirmasi"	Ushbu schyot ta'minotchilar tomonidan taqdim etilgan xarid chegirmasini aks ettiradi. Schyotning kreditida ta'minotchilar tomonidan taqdim etilgan chegirmalar, debetida esa zaxiralar tannarxiga o'tkazilgan chegirmalar summasi qayd qilinadi
	1730 "Xaridlar qaytarilishi va narxidan tushishlar"	Ta'minotchilarga buyurtmada yoki shartnomada ko'rsatilmagan zaxiralar yuborilganda yoki ularning sifati past bo'lganda va boshqa asosli sabablar bilan qaytarilgandagi zaxiralar hamda zaxiralarning umumiy summasidan tushishlar summalarini aks ettiradi. Ushbu schyotning kreditida ta'minotchilarga qaytarilgan zaxiralar yoziladi. Schyotning debetida esa xarid va tayyorlov-saqlash tannarxi schyotiga o'tkazilgan zaxirlarining qaytarilishi yoki narxidan tushishlari aks ettiriladi
	1740 "Xarid bojxona boji va yig'imlari"	Zaxiralarni chet eldan xarid qilish jarayonida bojxona qonunchiligiga muvofiq to'lanadigan bojxona boji va yig'imlari summalarini aks ettiradi. Ushbu schyotning debetida hisoblangan bojxona boji summasi, kreditida esa xarid va tayyorlov-saqlash tannarxiga o'tkazilgan bojxona boji va yig'imlari summolari aks ettiriladi
	1750 "Xarid transport hamda ortish-tushirish xarajatlari"	Zaxiralarni xarid qilish jarayonida transport xarajatlari, ortish-tushirish xarajatlari summalarini aks ettiradi. Ushbu schyotning debetida xarid jarayonida transport hamda ortish-tushirish xarajatlarning summolari, kredit qismida esa xarid va tayyorlov-saqlash tannarxi schyotiga o'tkazilgan transport hamda ortish-tushirish xarajatlari aks ettiriladi.
	1760 "Xarid boshqa xarajatlar"	Xarid bilan bog'liq boshqa xarajatlar, jumladan deklarasiya xarajatlari, vaqtinchalik omborlarda saqlash xarajatlari, sertifikatlashtirish xarajatlari summalarini aks ettiradi. Ushbu schyotning debetida barcha boshqa xarajatlar summolari, kreditida esa zaxiralarning xarid va tayyorlov-saqlash tannarxiga o'tkazilgan

		boshqa xarajatlar qayd qilinadi
	1770 “Zaxiralarni ishlab chiqarishga tayyorlov-saqlash xarajatlari”	Zaxiralarni ishlab chiqarishga tayyorlash, qisman qayta ishlash, saqlash, sinab ko‘rish xarajatlari summalarini hisobga oladi. Ushbu schyotning debetida ushbu toifadagi xarajatlar summolari aks ettirilsa, kreditida zaxiralarning xarid va tayyorlov-saqlash tannarxiga o‘tkazilgan summa qayd qilinadi

Yuqoridagi schotlar zaxiralarni xarid va tayyorlov-saqlash tannarxi bilan bog‘liq bevosita har bir elementlari bo‘yicha shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu elementlarning barchasini bitta schyotda, masalan **1700 “Zaxiralar xaridi va tayyorlov-saqlash tannarxi elementlari”** schyotida hisobga olsa bo‘lmaydimi? degan savol tug‘ilishi tabiiy. Zaxiralarning xarid tannarxi bo‘yicha bitta schyotdan foydalanilsa, ushbu schyot faqat umumiy zaxiralar xaridi va tayyorlov-saqlash tannarxi to‘g‘risida umumiy axborotni beradi. Tannarxning har bir elementi bo‘yicha axborotlarni to‘plash imkoniyati bo‘lmaydi. Boshqaruv maqsadlari, jumladan zaxiralar tannarxi ustidan nazoratni o‘rnatish, buyurtmalarning optimal miqdorini belgilash, zaxiralarni normativini ishlab chiqish uchun zaxiralarning xarid tannarxining har bir elementi bo‘yicha axborotlar talab etiladi. Shu maqsadda yuqorida ko‘rsatilgan tartibda har bir tannarx elementi bo‘yicha schotlarni ochish, yuritish va zarur axborotlarni uzatish o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикасининг «Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида»ги Қонуни. 2016 йил 13 апрель, № ЎРҚ-404. <https://lex.uz/acts/2931253>.
2. Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари. <http://finansist.uz/uz/moliyaviy-hisobotning-xalqaro-standartlari-ozbekistonda-qollanilishi/> 2018 й.
3. S.Tashnazarov. Moliyaviy Buxgalteriya hisobi 1 [Matn]: darslik/SamISI – Samarqand.: “STEP – SEL” MChJ nashriyoti, 2023 -580 bet.
4. Колонов М.Б. Корхоналарда даромадлар ва харажатлар ҳисоби ҳамда таҳлили методологиясини такомиллаштириш (автотранспорт корхоналари мисолида). Иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Тошкент.: ТМИ, 2019 й.